XALQ DEPUTATLARI BANDIXON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 23-sentabr VII-26-80-8-211-K/26 Bandixon tumani

Tuman hududida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori 8-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilishi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilab qo‘yilgan.

Tuman hokimining o‘rinbosari A.Doniyorov tuman markazidagi tadbirkorlik subyektlaridan chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar to‘g‘risidagi hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida muhokama qilinganligi hamda, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Bandixon tumani Kengashi

QAROR QILADI

1. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Doniyorov tuman hududida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari tariflarini tasdiqlash to‘g‘risidagi hisoboti hamda 2026-yil 15-iyuldagi № 03-03/929-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2026-yil 3-fevraldagi “Viloyat hududida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida” VII-17-14-8-0-K/26-sonli qarori bilan Bandixon tumani uchun belgilangan tariflar tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Bandixon tumanida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar tariflari 1-2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Doniyorov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (M.Qurbonmurodov)lar:

- tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha taqdim etgan tariflari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilganligiga shaxsan mas’ul ekanligi belgilansin. Shuningdek, ushbu tariflar to‘g‘risida mahalla fuqarolar yig‘inlari yettiligi bilan hamkorlikda aholi va tadbirkor subyektlariga tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin.

- aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan belgilangan tariflar bo‘yicha e’tirozlar tug‘ilganida, shu bilan birgalikda, zarurat tug‘ilganida tariflarni qayta ko‘rib chiqish uchun tuman Kengashiga kiritilishi belgilansin.

4. Yuqoridagi vazifalar ijrosi yuzasidan mutasaddi rahbarlar tomonidan har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’lumotlar taqdim etib borilsin.

5. Mazkur qarorni ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari (A.Doniyorov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (O.Ishpo‘latov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **JURAYEV ERKINJON NORMURODOVICH**

Xalq deputatlari Bandixon tumani
Kengashining
2026-yil 23-sentabrdagi
VII-26-80-8-211-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Supurish va tozalash ishlari bo‘yicha

M A ’ L U M O T

1	Maxsus texnika vositasining chiqindi olish hajmi (metr.kubda)	4 (to‘rt) metr.kub
2	Olti kunlik ish haftasida o‘rtacha ish kunlari soni	25,4 ish kuni
3	Bir texnika hisobiga oyiga buyurtmani qabul qilish (hajmida)	25,4 ish kuni*4 metrkub=101,6 metr.kub
4	Chiqindixonaga borib kelish masofasi (borish va kelish km)	70 (yetmish) km
5	Bir oyda kuniga 1 (bir) reys hisobiga yo‘l bosish masofasi.km	70 km*25,4 ish kuni=1778 km
6	Ikkita ishchining oylik to‘lovi *(O‘z.Res.Vaz.Max 2009 yil 01-apreldagi "Obodonlashtirish xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi № 91-sonli qaroriga asosan 03-razryad bo‘yicha oylik maosh so‘mda)*	5606000
7	Ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov (6satr*25%)	1401500
8	Ijtimoiy sug‘urtaga boshqa ajratmalar *(O‘z.Res.Vaz.Max 2025 yil 15-iyuldagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta ta’riflari koeffisiyentlarini ish beruvchining faoliyat turlari bo‘yicha qayta belgilash to‘g‘risida"gi №443-son qarori)*	4804
9	Texnikaning eskirish summasi	
10	Yoqilg‘i xarajati so‘mda	80000
11	Yoqilg‘i moylash materiallari so‘mda	
12	Avtoshina va AKB eskrish so‘mda	
13	Joriy ta’mirlash ishlari so‘mda	
14	Chiqindilarni to‘kish joyi xarajatlari 4 (to‘rt) m/kub uchun	72800
	Bevosita ishlabchiqarish xarajatlari so‘mda	**14283104**
15	Bir metr/kub uchun o‘rtacha xizmat bahosi so‘mda	140030
16	Bir reys xizmati narxi	560122

IZOH: Pullik chiqindilarni chiqarish va xududlarga obodonlashtirish, ko‘klamzorlashtirish xizmati ko‘rsatishga ASOS: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2025 yildagi "Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomi ni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-387-sonli qarori

Xalq deputatlari Bandixon tumani
Kengashining
2026-yil 23-sentabrdagi
VII-26-80-8-211-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Supurish va tozalash ishlari bo‘yicha

M A ’ L U M O T

Ish turi	**Har 1000 kv.m maydonga nisbatan vaqt me’yorlari (daqiqada)**	**O‘rtacha yillik davriylik (marta hisobida)**	**Har 1000 kv.m maydonga yil davomida sarflanadigan vaqt (soatida)**	**Har 1000 kv.m maydonga yiliga belgilangan xodimning me’yorlangan soni**
Hududda supuriladigan hamda tozalanadigan maydon	100,1	110	183,5	0,09
1 oyga				925,9
oylik maosh				2802878
1 metr/kv summasi				3027
Yagona ijtimoiy to‘lov 25%				757
1 metr/kv xizmat narxi				3784

Bir yillik va ko‘p yillik o‘simliklar ekish va ularni parvarish qilish bo‘yicha

so‘mda

Ish turi	**O‘lchov birligi kv**	**Har 1000 kv.m maydonga (100 metr) nisbatan yillik vaqt me’yorlari, soat***	**Ishlab chiqarish me’yori (kishi/soat)**	**Har 1 ga (10 000 kv.m) maydonga xodimlar soni**	**Bitta xodim bir yilda xizmat ko‘rsatadigan me’yor m2**
			(1 bir/3 gr)	**(100 kv.m*4gr)**	**(10 000 kv.m/5 gr)**
Ko‘kalamzorlashtiriladigan maydon	100	31,25	0,032	3,2	3125
1 oyga					260
oylik maosh					2802878
1 metr/kv summasi					10763
Yagona ijtimoiy to‘lov 25%					2691
1 metr/kv xizmat narxi					13454